

**ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/2025.27.12.T.18.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

ABDULLAYEV ALIMARDON IKROMJONOVICH

**YUQORI BOSIMLI YONILG‘I NASOSINING QAYTA TIKLANGAN
PLUNJER JUFTLIKHLARI ORQALI EKSPLUATATSION
KO‘RSATKICHLARINI ASOSLASH**

05.08.06 - G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon - 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Abdullayev Alimardon Ikromjonovich

Yuqori bosimli yonilg‘i nasosining qayta tiklangan plunjer juftliklari orqali
ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini asoslash..... 5

Абдуллаев Алимардон Икромович

Оценка эксплуатационных показателей топливного насоса высокого
давления с помощью восстановленных плунжерных пар..... 19

Abdullayev Alimardon Ikromjonovich

Evaluation of the performance indicators of a high-pressure fuel pump
using restored plunger pairs 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ

List of published works..... 40

**ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/2025.27.12.T.18.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

ABDULLAYEV ALIMARDON IKROMJONOVICH

**YUQORI BOSIMLI YONILG‘I NASOSINING QAYTA TIKLANGAN
PLUNJER JUFTLIK LARI ORQALI EKSPLUATATSION
KO‘RSATKICHLARINI ASOSLASH**

05.08.06 - G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon - 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T2949 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.astiedu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismatov Jumaniyev Fayzullayevich
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xudoyarov Anvar Nazirjonovich
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Nasirov Ilxam Zakirovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat texnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.18.01 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «___» _____soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 170119, Andijon shaxri, Boburshoh ko'chasi, 56-uy. Tel: (99874) 223-43-67; faks: (99874) 223-43-67; e-mail: info@astiedu.uz; e-xat: asti@exat.uz

Dissertatsiya bilan Andijon davlat texnika institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170119, Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 56-uy. Tel: (99891) 612-30-06; faks: (99874) 223-43-67; e-mail: asti-arm@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil «___» _____dagi № _____-raqamli reestr bayonnomasi).



U.M. Turdialiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

Sh.X. Yo'ldashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, t.f.f.d.,(PhD) dotsent

K. Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda mashina va mexanizmlarning ishlash muddatini oshirish, energiya samaradorligini ta'minlash hamda ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida, jumladan AQSh, Kanada, Germaniya, Shvetsiya, Janubiy Koreya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda transport vositalarining ishonchligi, yonilg'i tejamkorligi va ekologik ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqotlarda, ayniqsa, ichki yonuv dvigatellarining yonilg'i ta'minot tizimi elementlarining texnik holatini yaxshilash, ularning xizmat muddatini uzaytirish hamda turli ekspluatatsiya sharoitlarida barqaror ishlashini ta'minlashga doir ilmiy-amaliy yechimlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda zamonaviy dizel dvigatellarining samaradorligini oshirish, yonilg'i sarfini kamaytirish va ekologik ko'rsatkichlarini yaxshilash masalalarini yechishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, yonilg'i ta'minot tizimining asosiy elementi hisoblangan yuqori bosimli yonilg'i nasosi muhim o'rin tutadi va nasos tarkibidagi plunjer juftliklari yuqori bosim, harorat va ishqalanish sharoitida ishlashi natijasida tez yeyiladi, bu esa dvigatelning ekspluatatsion ko'rsatkichlari pasayishiga olib keladi. Shu jihatdan mazkur tadqiqotlarda, ayniqsa, ichki yonuv dvigatellarining yonilg'i ta'minot tizimi elementlarining texnik holatini yaxshilash, ularning xizmat muddatini uzaytirish hamda turli ekspluatatsiya sharoitlarida barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy masalalarning yechimlari va natijalaridan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda avtomobil transporti, jumladan, qishloq xo'jaligi va sanoatda avtomobillardan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mineral-xom ashyo bazasini kengaytirish", "Yetakchi sanoat va iqtisodiyot tarmoqlarini yanada liberallashtirish"¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, atmosfera havosidagi chiqindi gazlar miqdori ortib borishini hisobga olgan holda avtomobil dizel dvigatellari yonilg'i tizimining ish samaradorligini oshirish, ularga texnik xizmat ko'rsatish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ishga tushirish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"²gi PF-5863-son farmonida va 2023 yil 11 sentabrdagi PQ-158-son "O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son farmoni.

² <https://lex.uz/docs/-4574008>.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Dunyo olimlari tomonidan avtomobil detallarining mustahkamligini oshirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Dunyoning yetakchi olimlari, jumladan V.V. Antipov, Boshirov, S.A. Velichko, M.M. Vichert, V.A. Didur, B.P. Zagorodskix, E.V. Kiper, V.G. Kislov, A.T. Lebedev, V.V. Safonov, A.I. Selivanov, T.A. Siritsin, B.N. Feinleib, V.E. Cherkun va boshqalar yuqori bosimli yonilg‘i nasoslarining detallarini yeyilishi hamda dispers materiallar bilan galvanik va kimyoviy qoplamalarni modernizatsiya qilish usullarini ishlab chiqishgan.

MDH olimlari V.Ye. Loginov, B.N. Fayiley, V.V. Altipov, R.M. Bashirov va boshqa olimlar yuqori bosimli yonilg‘i nasoslarining detallari va birikmalarini yeyilishi hamda yeyilishga bardoshlilikini oshirish sohasida ilmiy – tadqiqot ishlarini olib borganlar.

O‘zbekiston olimlari S.M.Qodirov, U.R. Ikramov, R.M. Bashirov, S.N. Sharafudinov, S.L. Shishurin va boshqalar qayta tiklash texnologiyalarini tadqiq qilish va ishlab chiqish, yuqori bosimli yoqilg‘i nasoslari plunjer juftliklarini yeyilish bardoshlilikini, shuningdek ishonchliligi va chidamliligini oshirishda F.X.Burumkulov, S.N. Sharifudinov, M.M. Toshpulatov, K.X. Maxkamov va boshqalar ilmiy maktablari tomonidan amalga oshirildi. Shu bilan birga qayd etish joizki ushbu tadqiqotlarda qayta tiklangan plunjer juftliklariga ega yuqori bosimli yonilg‘i nasosining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini aniqlash usullari yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotini bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi dizel dvigatelli avtomobillarning qayta tiklangan plunjer juftliklariga ega yuqori bosimli yonilg‘i nasosini ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dizel dvigatelli avtomobillar yuqori bosimli yonilg‘i nasosi plunjer juftliklarini yeyilishi hamda qayta tiklashning mavjud usullarini tahlil qilish;

yuqori bosimli yonilg‘i nasosining plunjer juftliklarini yeyilish sabablarini nazariy modellarini ishlab chiqish;

yuqori bosimli yonilg‘i nasosini qayta tiklangan plunjer juftliklarini ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha nazariy va eksperimental tadqiqot natijalarini solishtirma tahlil qilish;

qayta tiklangan plunjer juftliklarini gidravlik zichlik qiymat ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida dizel dvigatelli avtomobillar yuqori bosimli yonilg‘i nasosining plunjer juftliklari olingan.

Tadqiqotning predmeti dizel dvigatelli avtomobillarning yuqori bosimli yonilg'ı nasosi plunjer juftliklarini ishchi yuzalari yeyilish mexanizmi hamda bu jarayonlarning yonilg'ı nasosining umumiy ekspluatatsion ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida eksperiment, kuzatuv, matematik statistika va modellashtirish, tizimli va nazariy tahlil, fizik- mexanik, gidravlik, kimyoviy- ekspluatatsion, kompleks stend hamda zamonaviy tadqiq qilish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

grafik-analitik yondashuv asosida yuqori bosimli yonilg'ı nasosining plunjer juftliklarida hosil bo'ladigan tirqish miqdorini aniqlash uslubi hamda ularning yeyilish jarayonini tavsiflovchi matematik model takomillashtirilgan;

plunjer juftliklarining ishchi yuzalari orasida hosil bo'ladigan abraziv zarrachalarning harakatlanish qonuniyatlari va ularning yeyilish jarayoniga ta'sir etish mexanizmi zarrachalarning geometrik o'lcham va shakllariga bog'liqligi ilmiy asoslandi;

plunjer juftliklarining yuza g'adir-budirlik qiymatlari asosida korrelyatsion-regression tahlil usuli yordamida, ularning normal taqsimlanish qonuni bo'yicha buzilmasdan ishlash ehtimolligini aniqlash uslubi ishlab chiqilgan;

plunjer juftliklarini gidravlik zichlikka sinash natijalariga asoslanib, eksperimental tadqiqot usullaridan foydalanish orqali ularning ekspluatatsion holatini tavsiflovchi chegaraviy parametrlarni aniqlash uslubi ishlab chiqilgan hamda ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalari asosida yuqori bosimli yonilg'ı nasosining qayta tiklangan plunjer juftliklarini qo'llash texnologiyasi ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi. Ushbu texnologiya "Andijon viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi Asaka tuman yo'llardan foydalanish davlat muassasasi" maxsus avtomobillarining yuqori bosimli yonilg'ı nasoslarida sinovdan o'tkazildi. Natijada qayta tiklangan plunjer juftliklarini qo'llash ekspluatatsion ko'rsatkichlarni yaxshilashi hamda ularning yeyilishga chidamliligi yangi plunjer juftliklariga nisbatan 1,1–1,2 barobar oshishi aniqlangan.

xrom asosidagi nanokompozit elektrolit qoplamalar asosida tiklangan plunjer juftliklarini qattiqligi HV 11000- 13000 MPagacha oshirilgan;

plunjer juftliklarini yuza aniqlik qiymatlari yangisi bilan taqqoslaganda $R_a < 0.04$ mkmgga tengligi taminlangan;

yuqori bosimli yonilg'ı nasosining plunjer juftliklarini yeyilish jarayoni matematik modeli ishlab chiqilgan;

plunjer juftliklarini yeyilishiga abraziv donachalarning ta'sir mexanizimi modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, dizel dvigatelli avtomobillar yuqori bosimli yonilg'ı nasosining qayta tiklangan plunjer juftliklari ekspluatatsion ko'rsatkichlari hamda ish rejimlarini nazariy jihatdan asoslashda oliy matematika va nazariy mexanikaning asosiy qoida va usullariga amal qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika usullari bilan

ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o‘zaro adekvatligi, tanlangan qayta tiklash texnologiyalarini avtotransport korxonasi maxsus texnikalari sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yuqori bosimli yonilg‘i nasosining plunjer juftliklarini qayta tiklash texnologiyalarini tanlashning texnik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarni kompleks baholash metodi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati dizel dvigatelli avtomobillarning yuqori bosimli yonilg‘i nasosidagi plunjer juftliklarini avtotransport korxonalari ta‘mirlash ustaxonasi sharoitida qayta tiklash orqali mustahkamligini oshirish, ekspluatatsion davriyligini ta‘minlash, yonilg‘i sarfini hamda xarajatlarni kamaytirish imkonini berish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Dizel dvigatelli avtomobillarning yuqori bosimli yonilg‘i nasosining qayta tiklangan plunjer juftliklarini ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini asoslash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

dizel dvigatelli avtomobillarning yuqori bosimli yonilg‘i nasoslarida qayta tiklangan plunjer juftliklarini qo‘llash “Andijon viloyati avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi Asaka tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi”da amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025 yil 27-iyundagi 4/6900-son ma‘lumotnomasi). Natijada dizel dvigatelli avtomobillarning yuqori bosimli yonilg‘i nasosidagi plunjer juftliklarini avtotransport korxonalari ta‘mirlash ustaxonasi sharoitida qayta tiklash orqali mustahkamligini oshirish, ekspluatatsion davriyligini ta‘minlash, yonilg‘i sarfini hamda xarajatlarni kamaytirishiga olib kelgan;

yuqori bosimli yonilg‘i nasosining plunjer juftliklarini qayta tiklash texnologiyalarini tanlashning texnik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarni kompleks baholash metodi, “Andijon viloyati avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi Asaka tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi” da amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligining 2025 yil 27-iyundagi 4/6900-son ma‘lumotnomasi). Natijada, qayta tiklangan plunjer juftliklariga ega yuqori bosimli yonilg‘i nasosning bosim korsatkichi 3-5 foizga farq qildi, buning natijasida amaliy ekspluatatsiya uchun to‘liq ruhsat etiladigan chegara ko‘rsatkichlari yaxshilangan;

plunjer juftliklarining ekspluatatsion holatini aniqlovchi chegaraviy qiymatlarini aniqlash uslubi “Andijon viloyati avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi Asaka tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi” da amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligining 2025 yil 27-iyundagi 4/6900-son ma‘lumotnomasi). Natijada, qayta tiklangan plunjer juftliklari yangisi bilan taqqoslaganda yeyilishga chidamliligi 1.1 -1.2 marta oshirishga erishilgan;

qayta tiklangan plunjer juftliklarini qollash, “Andijon viloyati avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi Asaka tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi” da amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligining 2025 yil 27-iyundagi 4/6900-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqarishga joriy etilgan texnologiya iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘lib, Andijon viloyati miqyosida ta‘mirtalab 338 maxsus avtomobillar hisobidan 2028 dona plunjer tiklansa yillik dasturda 233 mln, 22 ming so‘mlik samara berishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, 2 ta Xalqaro konferensiyalarda, 4 ta respublika ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarida nashr etilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 2 ta dasturiy guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida dizel dvigatelli avtomobillarining samaradorligini belgilovchi omillar, bu uskunaning uzoq vaqt davomida o‘z funkcionalligini saqlab turish qobiliyati va mehnat va moddiy resurslarning minimal sarflanishi o‘rganilgan va tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlangan.

Avtotransport korxonalarining asosiy va eng muhim vazifalari transport vositalarining ishlashi davomida ularning ishonchli ishlashini ta‘minlash, shuningdek ta‘mirlash oralig‘idagi ish vaqti va ishonchlik ko‘rsatkichlarini sifatli hamda minimal xarajatlar bilan optimal darajada tiklashdan iborat.

Amaliyotlar shuni ko‘rsatadiki, dizel dvigatelli maxsus avtomobillar nosozliklarining 50% gacha qismi yonilg‘i tizimida sodir bo‘ladi. Uning noto‘g‘ri ishlashining asosiy sabablaridan biri yonilg‘ining ifloslanishiga to‘g‘ri keladi. Yonilg‘ining ifloslanishi nafaqat yonilg‘i uskunalari, balki dvigatel qismlarini yeyilishini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli, dvigatel sanoatida va dvigatellardan foydalanadigan tarmoqlarda yonilg‘i tizimini va yonilg‘ini tozalash tizimlarini takomillashtirish masalasiga katta e‘tibor beriladi.

Ifloslangan yonilg‘i uzoq vaqt davomida (da 20 °C da 4...5 kun davomida) baklarga to‘ldirishdan oldin cho‘ktirish yoki filtrlash zarur. Keyinchalik tozalash uchun dizel yonilg‘i tizimida yonilg‘i baklarida maxsus joylashtirish zonalari, bakdan yonilg‘i olish quvurlarida dag‘al va mayin tozalash filtrlari mavjud.

Yuqori bosimli yonilg‘i nasoslari va forsunkalar yonilg‘i tizimining asosiy va eng murakkab va qimmat birliklari bo‘lib, ular dvigatelning quvvat va yonilg‘i-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini, uning ishonchliligini, shovqinni, tutunni va zaharliligini belgilaydi.

Ular juda kichik bo‘shliqlarga ega, yuqori aniqlik bilan ishlab chiqarilgan, o‘lchamlari va geometrik shakllari mikrometrning o‘ndan bir qismida ta‘minlangan aniq juftliklarga ega. Misol uchun, yuqori bosimli yonilg‘i nasosida plunjer juftliklari o‘rtacha 0.5 ... 2 mikron bo‘shliqlar bilan ishlab chiqariladi. Ular yonilg‘i tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalarga ayniqsa sezgir va yuqori tozalashni talab qiladi.

Asosiy birliklarga yonilg‘i quyish nasoslari ham kiradi. Yonilg‘i tizimining qolgan birliklari va komponentlari: filtrlar, aylanma klapanlar va quvurlar yordamchi va asosiy birliklarning ishlashini ta‘minlash, ya‘ni, ularning ishonchliligi va chidamliligini belgilaydi. Tadqiqotda maxsus avtomobillar va yuk avtomobillariga o‘rnatiladigan tarqatish tipidagi yuqori bosimli yonilg‘i nasoslarining ishlamay qolishi sabablari o‘rganildi. Ma‘lumotlar 1 va 2 jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Qatorli turidagi yuqori bosimli yonilg‘i nasosining ekspluatasion nosozliklar sabablari.

Nosozliklar sabablari	Yuqori bosimli yonilg‘i nasosining, ekspluatasion nosozliklari	Ta‘mirlash uchun olingan yuqori bosimli yonilg‘i nasosi	
		Maxsus avtomobillar	Yuk mashinasi
Ekspluatasion nosozliklar	28.3 %	26.7 %	45.1 %
Yonilg‘ida suv mavjudligi	47.1 %	40.5 %	25.9 %
Yonilg‘ida abraziv zarralar mavjudligi	11.8 %	12.2 %	4.9 %
Moylash materiallari sababli	29.3 %	23.6 %	21.8 %
Qoniqarsiz texnik ko‘rik	-	21.5 %	46.5 %
Boshqa sabablar	11.8 %	2.2 %	0,9 %

2-jadval

Nosozliklar ulushi.

Ishdan chiqish sabablari	Miqdori , %	Sabab
Plunjerning tiqilib qolishi	26.7	Yonilg‘ida suv yoki ifloslik
Past bosimli nasos porshenining tiqilib qolishi	13.3	Yonilg‘ida suv
Dozator yuritmasi valigi tiqilib qolishi	12.2	Yonilg‘ida suv yoki ifloslik
Dvigatelning salt ishlash rejimida ishlamay qolishi	6.7	Yonilg‘ida suv
Nasos podshipniklari va boshqa qismlarining erta ishdan chiqishi	16.1	Moy yo‘qligi
Nasosning to‘liq korroziyaga uchrashi	13.2	Moy Ifloslanishi
Boshqa sabablar	11.8	Gaykalarni bo‘shashishi

Keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, yuqori bosimli yonilg‘i nasosining ekspluatasion nosozliklari yonilg‘i apparaturasi zimmasiga, uskunalari bilan bog‘liq nosozliklar umumiy sonining 26.7 dan 45.1% gacha to‘g‘ri keladi.

Buning sababi 25.9 dan 40.5 gacha % hollarda yonilg‘ida suv va iflosliklar mavjudligi.

Dissertatsiyaning “**Plunjer juftliklarini ishga yaroqliligini aniqlashning nazariy asoslari**” deb nomlangan ikkinchi bobida plunjer juftidagi bo‘shliqni aniqlashning matematik modeli yaratilgan.

Yassi tirqish orqali oqishning o‘zgarishining chiziqli qonuni quyidagilar uchun amal qiladi:

oqim izotermik, ishchi suyuqlik siqilmaydigan bo‘lishi, Nyutonning qovushqoq ishqalanish qonuniga bo‘ysunishi va uning qovushqoqligi bosimdan mustaqil bo‘lishi kerak. Aslida, ishlaydigan suyuqlikning barqaror oqimi bilan ham,

Nyutonning qovushqoq ishqalanish kuchlari qonuniga bo‘ysungan holda, tekis teshikdan o‘tayotganda bosim yo‘qotishlari issiqlikning chiqishi bilan birga keladi, bu esa haroratning oshishiga va qovushqoq ishqalanish kuchlarining mos ravishda pasayishiga olib keladi. Ishlaydigan suyuqlik siqiladi. Ishchi suyuqlikning qovushqoqligi bosimga bog‘liq.

Issiqlik ta‘sirining ishchi suyuqlikning tekis tirqish orqali oqib chiqishiga ta‘sirida, issiqlik effekti va ishchi suyuqlikning elastik deformatsiyasining bir vaqtning o‘zida ta‘siri ishda ko‘rib chiqiladi. Harorat, bosim va elastik deformatsiyaning ishchi suyuqlikning qovushqoqligi va zichligiga ta‘siri mos ravishda tizimni tashkil etuvchi tenglamalar bilan taxmin qilinadi.

$$\begin{cases} \mu = \mu_0 \exp \left[\frac{p - p_0}{p_\mu} - \frac{t - t_0}{t_\mu} \right] \\ \rho = \rho_0 [1 - \alpha(t - t_0) - \beta(p_0 - p)] \end{cases} \quad (1)$$

Bu yerda,

p_μ -qovushqoq bosim;

t_μ -qovushqoqlik harorati;

α - haroratning suyuqlik zichligiga ta‘sir koeffitsienti;

β - suyuqlik zichligiga bosimning ta‘sir koeffitsienti;

“nol” indeksi miqdorlarni boshlang‘ich shartlarini bildiradi.

Ishchi suyuqlikning tor tirqish orqali yuqori tezlikda laminal harakati bilan, devorlarga o‘tkaziladigan issiqlik miqdori nisbatan kichik va suyuqlikni tirqish orqali o‘tkazish uchun sarflangan energiya deyarli to‘liq sarflanadi deb taxmin qilish mumkin. t_1 vaqtda bajarilgan ish

$$W = Qdt_1 \gamma c(t - t_0) J = (p_0 - p) Qdt_1 * 10^6 \quad (2)$$

Bu yerda,

Q - iste‘mol;

t_1 - vaqt;

γ - hajmli og‘irlik;

c - solishtirma issiqlik quvvati ($c = 0.45 - 0.050 \text{ kkal}/H^0C$);

$t - t_0$ - harorat gradienti;

J - ishning termal ekvivalenti ($J = 4270N * m/kkal$);

$p_0 - p$ - bosimning pasayishi.

Shuning uchun, bosim farqi $p_0 - p$ ta‘sirida teshikdan o‘tib ketganda ishlaydigan suyuqlikdagi harorat farqi bu farqga proporsionaldir:

$$t - t_0 = \frac{10^6}{J\gamma c}(p_0 - p) \equiv k(p_0 - p) \quad (3)$$

Tizimdan (1) harorat farqini hisobga olmaganda, tenglikdan (2) foydalanamiz

$$\begin{cases} \mu = \mu_0 \exp[(a + kb)(p_0 - p)] = \mu_0 \exp \frac{p_0 - p}{p_t} \\ \rho = \rho_0 [1 - (ka + b)(p_0 - p)] \equiv \left(1 - \frac{p_0 - p}{p_p}\right) \rho_0 \end{cases} \quad (4)$$

Bu yerda,

$p_t = (a + kb)^{-1}$ - issiqlik bosimi;

$p_p = (ka + b)^{-1}$ - deformatsiya bosimi.

Ishlar materiallariga asoslanib mineral suyuqliklar uchun (DT turi) $p_t = 26$ MPa va $p_p = 99$ MPa, sintetik ishchi suyuqliklar uchun $p_t = 30p_t$ MPa va $p_p = 640$ MPa olinishi mumkin.

Harorat va bosim uchun tuzatish nisbati koeffitsiyentlari mos ravishda tegishli kattaliklar orqali aniqlanadi.

$$k \frac{b}{a} = \frac{b \cdot 10^6}{J\gamma ca} \approx 0.64 - 0.74 \text{ yoki } k \frac{\alpha}{\beta} = \frac{\alpha \cdot 10^6}{J\gamma c\beta} \approx 0.47 - 0.93 \quad (5)$$

O'zgartirishlarning bir xil tartibini va ularning har birini hisobga olishning taxminan bir xil ahamiyatligini ko'rsatadi. Shuning uchun, agar issiqlik ta'sirini hisobga olish muhim bo'lsa, ishchi suyuqlikning tor teshikdan o'tib ketganda deformatsiyaning ta'sirini hisobga olish majburiydir.

Ishchi suyuqlikning tekis teshikdan oqib chiqishi quyidagi tenglama bilan tavsiflanadi.

$$\frac{\partial p}{\partial x} = \mu \frac{\partial^2 v_x}{\partial z^2} \quad (6)$$

Bu yerda,

x - oqim chizig'i bo'ylab yo'naltirilgan koordinata;

z - x va tirqish devorlarining normal koordinatasi.

Yuqori bosimli yonilg'i nasosidagi plunjer juftlarining ish holatining ko'rsatkichi sifatida tadqiqot uchun yuqori bosimli yonilg'i nasosining nominal va ishga tushirish rejimlarida gidravlik zichlikni baholash qabul qilindi.

$v_x = 0$, $z = 0$ va $z = h$ (bu yerda h – tirqish devorlari orasidagi masofa) ekanligini hisobga olib, integrallashdan keyin tezlik ifodasini olamiz.

$$v_x = \frac{1}{2\mu} z(z - h) \frac{\partial p}{\partial x} \quad (7)$$

Tenglikning ikkala tomonini p ga ko'paytirib ($v \text{ const } pv_x = \text{const}$ uzluksizlik tenglamasidan) (3) sistemani hisobga olib, har bir oqim chizig'i uchun differensial tenglamani olamiz.

$$\frac{2\mu_0(\rho v_x)}{\rho_0 z(z-h)} dx = 12 \left(1 - \frac{p_0 - p}{p_\rho}\right) \exp\left(\frac{P_0 - P}{P_t}\right) dp \quad (8)$$

$x = 0$ uchun $p_0 - p$ boshlang'ich sharoitda tenglamaning yechimi bo'ladi.

$$\frac{2\mu_0(\rho v_x)}{\rho_0 z(z-h)} x = \frac{p_t}{p_\rho} \left[p_t + p_0 - (p_t + p_\rho + p - p_0) \exp\left(\frac{p_0 - p}{p_t}\right) \right] \quad (9)$$

va $x = 1$ da (bu yerda l - tekis tirqish uzunligi), $p = 0$ bo'lganda, shaklni oladi.

$$\frac{2\mu_0(\rho v_x)}{\rho_0 z(z-h)} l = \frac{p_t}{p_\rho} \left[p_t + p_\rho - (p_t + p_\rho - p_0) \exp\left(\frac{p_0}{p_t}\right) \right] \quad (10)$$

Olingan tengliklarni muddatlarga bo'lib, chiziqli bo'lmagan bog'liqlikni ko'rsatadigan tenglik shaklida tekis tirqish uzunligi bo'ylab bosim o'zgarishi qonunini topamiz $p = p(l, p_t, p_p)$

$$\frac{x}{l} = \frac{\left(1 - \frac{p_0 - p}{p_t + p_\rho}\right) \exp\left(\frac{p_0 - p}{p_t}\right)}{\left(1 - \frac{p_0}{p_t + p_\rho}\right) \exp\left(\frac{p_0}{p_t}\right)} \quad (11)$$

$$\frac{x}{l} = \frac{\exp\left(\frac{p_0 - p}{p_t}\right) - 1}{\exp\left(\frac{p_0}{p_t}\right) - 1} \quad (12)$$


Pyezometrik chiziqqa nisbatan (5) va (6) tenglamalarning yechimlari:

$$\frac{x}{l} = 1 - \frac{p}{p_0} \quad (13)$$

Bosimning o'zgarishi tabiati p/p_0 tekis uyasi uzunligi bo'ylab x/l boshlang'ich bosimning uchta qiymatida $p = 26, 52$ va 78 MPa da t $p_t = 26$ MPa va $p_p = 990$ MPa 1-rasmda ko'rsatilgan, bu tirqishning dastlabki qismida sezilarli bosim pasayishini ko'rsatadi (hisoblash). ishchi suyuqlikning oqishi yo'nalishi bo'yicha). Shuning uchun bo'shliqdagi gidrostatik bosim tomonidan yaratilgan bosim kuchining qiymati an'anaviy chiziqli shakldan farq qiladi:

$$p = \frac{1}{2} b l p_0 \quad (14)$$

bu yerda l - tekis tirqishning kengligi.




1-rasm. Plunjer juftliklari tirqishidagi suyuqlik bosimning o'zgarish grafigi

Bosim kuchi P ning p_0 da qiymati $t_b \cdot p_{dx} \cdot 0$ ifoda bilan aniqlanadi, u tenglikni hisobga olgan holda yechimni beradi.

Dissertatsiyaning «Tadqiqot dasturi va usullari» deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotni olib borish ketma ketligi va bosqichlari keltirilgan.

Eksperimental tadqiqotlarning umumiy dasturi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Eksperimental tadqiqot dasturining sxemasi.

Tadqiqot bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yuqori bosimli yonilg'i nasosidagi plunjer juftliklarini tiklash uchun qoplamani tanlash;
- tiklangan plunjer juftliklarini qoplama qattiqligini aniqlash;
- tiklangan plunjer juftliklarini yuza g'adir-budurligini aniqlash;

- plunjer juftliklarining gidravlik zichligini ekspluatatsion qiymat ko'rsatkichlarini aniqlash;

- tiklangan plunjer juftliklariga ega yuqori bosimli yonilg'i nasosini stand sinovlarini o'tkazish;

Tadqiqot dasturi quyidagi usullarni ishlab chiqishni nazarda tutgan:

- yuqori bosimli yonilg'i nasosining plunjer juftliklarini qiyosiy sinovlari usullari;

- yuqori bosimli yonilg'i nasosining plunjer juftliklarining gidravlik zichligini baholash usullari;

- dvigatelining yuqori bosimli yonilg'i nasosida plunjer juftliklarini stand va ekspluatatsion sinov usullari.

Tadqiqot dasturi dissertatsiya ishida taqdim etilgan tadqiqot bosqichlarining tarkibiy va mantiqiy bog'liqligini aniqlaydigan bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan.

Tadqiqot dasturining strukturaviy sxemasi 2-rasmda keltirilgan.

O'rganilmagan parametrlarning tadqiqot natijalariga ta'sirini istisno qilish uchun quyidagilar nazarda tutilgan:

- texnologik jarayonga qat'iy rioya qilgan holda, bitta markadagi metallardan namunalar (guruh doirasida) tayyorlash, bitta elektrolit tarkibidan yoki bitta uskunada kimyoviy eritmadan elektrokimyoviy qoplamalar olish;

- xrom asosidagi elektrolit qoplamalarni qo'llashda xonadagi havo haroratini 18...22°C va havoning nisbiy namligini 45-55% gacha saqlash;

- elektrolitlar va kimyoviy eritmalarini sozlash uchta namunadagi qismlar guruhini qoplaganidan keyin va har kuni ish boshlashdan oldin amalga oshirilishi kerak;

- bir vaqt davomida namunalarga galvanik-kimyoviy qoplamalarni qo'llash.

Olingan qoplamalarning fizik-mexanik xossalari mikroqattiqlik va plunjer juftligining gidravlik zichligi o'rganildi.

Dissertatsiyaning "**Tajriba natijalarini tahlili**" deb nomlangan to'rtinchi bobida uch turdagi transport vositasi qayta tiklangan plunjer juftligi o'rnatilgan yonilg'i apparaturasida eksperimental (CR825 sinov standida) va real sharoitda ekspluatatsion sinovlari natijalari keltirilgan.

Stand sinovlari natijalariga ko'ra, statistik qatorlar yaratildi va grafik bog'liqliklar tuzildi.

Qatorli yuqori bosimli yonilg'i nasosining plunjer juftliklarining boshlang'ich siklik yonilg'i ta'minotini sinovdan o'tkazish va ushbu qiymatlarga shuni ko'rsatdiki yangi plunjer juftliklariga nisbatan tiklangan plunjer juftliklarining siklik yonilg'i quyish ko'rsatkichlari 0.9...0.96 ga teng bo'lib bir guruxda ekspluatatsiya qilish mumkinligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar sinovdagi KamAZ avtomobili yonilg'i apparaturasini plunjer juftliklarida – 0.96, Avtogreyder XCMG-165 yonilg'i apparaturasini plunjer juftliklarida-0.95, O'zi yuklagich ekskavator XCMG WZ 30-25 yonilg'i apparaturasini plunjer juftlari – 0.95.

Stand sinovlari dan so'ng sinovdan ijobiy natijalar qayd etilgan yuqori bosimli yonilg'i nasoslar eksperimental sinov uchun "Asaka tuman yo'llardan foydalanish davlat muassasasi" transport parkidagi KamAZ avtomobili, Avtogreyder XCMG-165, O'zi yuklagich ekskavator XCMG WZ 30-25 transport vositalariga o'rnatildi. Eksperimental sinov haqqoniyligini ta'minlash uchun sinov jarayonida bir xil yonilg'i va moylash materiallari bilan ta'minlandi. Texnik ko'riklar reglament ko'rsatkichlari

asosida bajarildi. Asosiy farq eksperimentdagi transport vositalarining ekspluatatsiya sharoiti va eksperimental sinov vaqti davomiyligida. 2023 yil mart oyidan 2024 yilning sentyabr oyiga qadar davom etdi. Shu davr mobaynida KamAZ avtomobili 53000 km masofa bosib o‘tdi, XCMG-165 Avtogreyder 749 moto/soat va XCMG WZ 30-25 O‘zi yuklagich ekskavator 1306 moto/soat ishladi. Ekspluatatsiya davomiyligi KamAZ avtomobilida km/s da XCMG-165 Avtogreyder va XCMG WZ 30-25 O‘zi yuklagich ekskavator 2054 moto/soat da bo‘lgani uchun, texnik ko‘rik sharoitini tenglashtirish uchun Kublin formulasi orqali aniqlanadi.

Kublin formulasi moto soatda ishlaydigan texnik ko‘rik davrini aniqlash uchun qo‘llaniladi:

$$\text{Yurilgan masofa (km)} = (244.38 \cdot \text{TBN} \cdot V_m \cdot V_{dv}) / (L_{100} \cdot P_{ok})$$

Bu yerda:

TBN – quyilayotgan motor moyining ishqoriy ko‘rsatkichi.

V_m – almashtiriladigan moy xajmi.

V_{dv} – dvigatel xajmi (mm^3).

L_{100} – yonilg‘i sarfi (o‘rtacha) 100 km ga.

P_{ot} – dvigatel quvvati “ot kuchi”.

Yoki taxminiy xisob uchun quyidagi nisbatni qabul qilish mumkin:

Yengil avtomobil uchun: 1 moto/soat \approx 12-14 km

G‘ildirakli traktor: 1 moto/soat \approx 8-10 km

Zanjirli traktor: 1 moto/soat \approx 5 km

Avtogreyder XCMG-165 1036 moto/soat \approx 13060 km

O‘zi yuklagich ekskavator XCMG WZ 30-25 749 moto/soat \approx 7490 km


Eksperiment sinovi natijalarini aniqligini ta‘minlash uchun umumiy ko‘rsatkichga, ya‘ni, km/s ni moto/soat ga o‘tkazamiz.

Moto/soatni xisobi uchun formula:


$$\text{Moto/soat} = \text{Masofa (km)} / \text{O‘rtacha tezlik (km/s)}$$

$$\text{Moto/soat} = 53000 \text{ km} / 50 \text{ km/s} = 1060 \text{ moto/soat}$$


Stend sinovlari dan so‘ng sinovdan ijobiy natijalar qayd etilgan yuqori bosimli yonilg‘i nasosi eksperimental sinov uchun “Asaka tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi” transport parkidagi KamAZ avtomobili, XCMG-165 Avtogreyder, XCMG WZ 30-25 O‘zi yuklagich ekskavator transport vositalarida o‘tkazildi. Sinov davrida yuqori bosimli yonilg‘i nasoslarida ta‘mirlash ishlari olib borilmadi. Sinovlar shtat rejimida o‘tdi. Sinov davri tugagach yuqori bosimli yonilg‘i nasoslari transport vositalaridan yechib olindi va o‘zgartirishsiz stend sinovlari o‘tkazildi. Stend sinovlari dastlabki sinov o‘tkazilgan CR825 sinov stendida siklik yonilg‘i ta‘minotining 1000 sikl rejimida o‘tkazildi va qiymatlar olindi. Natijalar quyidagi jadvallarda qayd etildi.



3-rasm.



4-rasm.



5-rasm.

Olingan sinovlari natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, dastlabki stend sinov natijalariga nisbatan (3, 4, 5-rasmlar), eksperimental sinovlar (bevosita transport vositasida) o'tkazilgandan so'nggi qayta stend sinovlari quyidagi natijalarni qayd etdi. KamAZ avtomobili plunjer juftlari uchun siklik yonilg'i ta'minotini boshlashning eng yuqori ehtimoli 104 mm³/sikl dastlabki natija, 79 mm³/sikl eksperimental sinovdan so'ng, Avtogreyder XCMG-165 plunjer juftlari uchun esa 199 mm³/sikl dastlabki

natija, $141 \text{ mm}^3/\text{sikl}$ eksperimental sinovdan so‘ng va O‘zi yuklagich ekskavator XCMG WZ 30-25 plunjer juftlari uchun $149 \text{ mm}^3/\text{sikl}$ dastlabki natija, $65 \text{ mm}^3/\text{sikl}$ eksperimental sinovdan so‘ng.

O‘tkazilgan ikki turdagi sinovlarga asoslanib, yangi qatorida qayta tiklangan plunjer juftliklari qo‘llanishi uchun asos ekspluatatsiya jarayonida ikki turdagi plunjer juftliklari texnik holati qiymat ko‘rinishda deyarli bir xil ko‘rsatkichga ega.

XULOSALAR

1. Transport vositalarida nosozliklarning 26.7–45.1 % gacha bo‘lgan qismi yonilg‘i apparaturasiga to‘g‘ri kelishi aniqlanib, bu tizimda ishlash muddati asosan plunjer juftliklari resursi bilan cheklanishini ko‘rsatdi. An’anaviy tiklash usullarining kamchiliklarini bartaraf etuvchi nanokompozit qoplamalarning yuqori istiqbolliligi ilmiy asoslandi.

2. Plunjer juftligidagi tirqishning o‘zgarishi yonilg‘i bosimini shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanligi hisobga olinib, tirqishni aniqlash bo‘yicha matematik model ishlab chiqildi. Ushbu model asosida mikrozaralar o‘lchamining yeyilish intensivligiga ta’siri ham nazariy va amaliy ravishda asoslab berildi.

3. Tiklangan plunjer juftliklarining gidravlik zichligi ($9.9 \dots 10.9 \text{ m}^2/\text{s}$) qovushqoqlikda tekshirilgan 20 ta namuna asosida aniqlanib, ularning zichlik ko‘rsatkichlari seriyali (yangi) plunjer juftliklariga juda yaqin ekani tasdiqlandi. xrom asosidagi nanokompozit elektrolit qoplamalar bilan tiklangan detallar standart ishlab chiqarish namunalarining texnik ko‘rsatkichlariga mos keladi.

4. Olingan nanokompozit qoplamalarning mikroqattiqligi o‘lchanib, 11000–13000 MPa (abraziv zarracha qattiqligi) va 5000–11000 MPa (qoplama qattiqligi) diapazonida ekani aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar seriyali (yangi) detallar qattiqligiga mos keladi.

5. Tiklangan plunjer juftligining yuzasi Micron Beta 3D profilometri yordamida baholanib, yangi plunjer juftliklariga nisbatan g‘adir-budirlik ko‘rsatkichi deyarli bir xil ($R_a < 0.04 \text{ mkm}$) ekani isbotlandi. Bu tiklash texnologiyasi yuza sifatni to‘liq tiklab berishini ko‘rsatdi.

6. Stend sinovlari natijalariga ko‘ra, tiklangan plunjer juftliklari va yangi plunjer juftliklarning siklik yonilg‘i ta’minoti bo‘yicha amalda bir xil natija ko‘rsatdi belgilangan texnik talablarga asosan. Bu qayta tiklangan plunjer juftliklarni yangi plunjer juftliklar bilan bir to‘plamda qo‘llash imkonini beradi. Ishlab chiqarishga joriy etilgan texnologiya iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘lib, viloyat miqyosida ta’mirtalab 338 maxsus avtomobillar hisobidan 2028 dona plunjer tiklansa yillik dasturda 233 mln, 22 ming so‘mlik samara berishi aniqlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/2025.27.12.T18.01. ПРИ АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

АБДУЛЛАЕВ АЛИМАРДОН ИКРОМЖОНОВИЧ

**ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ТОПЛИВНОГО
НАСОСА ВЫСОКОГО ДАВЛЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ
ВОССТАНОВЛЕННЫХ ПЛУНЖЕРНЫХ ПАР**

05.08.06 – Колесные и гусеничные машины и их эксплуатация

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Андижан - 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, наука и инновации Республики Узбекистан за № В2025.1.PhD/Т2949

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.astiedu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Исмаатов Жуманиез Файзуллаевич
доктор технический наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты:

Худояров Анвар Назиржанович
доктор технический наук(DSc), профессор

Насиров Илхам Закирович
кандидат технический наук, профессор

Ведущая организация:

Ферганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2026 года в «_____» часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Т.18.01 при Андижанский государственный технический институт по адресу: 170119, г. Андижан, ул. Бобуршоҳ, 56. Тел: (99874) 223-43-67; факс: (99874) 223-43-67; e-mail: info@astiedu.uz; e-xat: asti@exat.uz

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Андижанского государственного технического института (зарегистрировано под номером ____). (Адрес 170119, г. Андижан, ул. Бобуршоҳ, 56. Тел: (99891) 612-30-06; факс: (99874) 223-43-67; e-mail:asti-arm@umail.uz)

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 г.
(реестр протокола рассылки № _____ от «_____» _____ 2026 г).



У.М. Турдалиев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Ш.Х. Юлдашев
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н., (PhD) доцент

К. Юлдашев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Мировая практика показывает, что увеличение срока службы, обеспечение энергетической эффективности машин и механизмов, а также внедрение экологически безопасных технологий занимают одно из приоритетных мест. В глобальном масштабе, в том числе в США, Канаде, Германии, Швеции, Республике Корея, Китае и других странах, осуществляется широкое внедрение в практику научных исследований, направленных на повышение надежности транспортных средств, их топливной экономичности и экологических показателей. В этом контексте особое значение приобретают научно-прикладные задачи, связанные с улучшением технического состояния, увеличением ресурса, элементов системы топливоподачи двигателей внутреннего сгорания, а также обеспечением устойчивой работы в различных эксплуатационных условиях.

В настоящее время в мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на повышение эффективности современных дизельных двигателей, снижение расхода топлива и улучшение экологических характеристик. В этой связи важную роль играет топливная система, ключевым элементом которой является топливный насос высокого давления. Плунжерные пары, входящие в состав топливного насоса высокого давления, функционируют в условиях высокого давления, температуры и трения, что приводит к их интенсивному износу и, как следствие, к снижению эксплуатационных показателей двигателя. В связи с этим особое внимание уделяется совершенствованию технологий восстановления плунжерных пар, увеличению их ресурса, а также научному обоснованию показателей работы двигателя при использовании восстановленных деталей.

В Республике Узбекистан реализуются комплексные меры по повышению эффективности использования автомобильного транспорта, в том числе в сельском хозяйстве и промышленности, и достигаются определенные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы определены важные задачи, такие как “Расширение минерально-сырьевой базы с учётом потребностей экономики” и “Дальнейшая либерализация ведущих отраслей промышленности и экономики”¹. В реализации данных задач особую значимость приобретают исследования, направленные на повышение эффективности работы топливных систем дизельных двигателей автомобилей с учетом роста выбросов загрязняющих веществ в атмосферный воздух, совершенствование технологий их технического обслуживания, а также разработка и внедрение новых технологических процессов.

Данная диссертационная работа в определенной степени направлена на реализацию задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 30 октября 2019 года № УП-5863 “Об утверждении Концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 года”², а также

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы”

² <https://lex.uz/docs/-4574008>

Постановлением от 11 сентября 2023 года № ПП-158 “О Стратегии “Узбекистан–2030” и другими нормативно-правовыми актами, регулирующими данную сферу деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в рамках II приоритетного направления развития науки и технологий республики “Энергетика, энерго- и ресурсоэффективность”.

Уровень изученности проблемы. В разработке исследований по повышению прочности автомобильных деталей принимали участие ведущие мировые ученые, в том числе В.В. Антипов, А.Боширов, С.А. Величко, М.М. Вихерт, В.А. Дидур, Б.П. Загородских, Е.В. Кипер, В.Г. Кислов, А.Т.Лебедев, В.В.Сафонов, А.И.Селиванов, Т.А.Сирицин, Б.Н.Файнлейб, В.Е.Черкун и другие разработали методы модернизации гальванических и химических покрытий дисперсными материалами и шлифования деталей топливных насосов высокого давления (ТНВД).

Учёные СНГ В.Е. Логинов, Б.Н. Филейб, В.В. Алтыпов, Р.М. Баширов и другие проводили научные исследования в области повышения износостойкости и стойкости деталей и узлов топливных насосов высокого давления.

Узбекские учёные С.М. Кадыров, У.Р. Икрамов, Р.М. Баширов, С.Н. Шарафудинов, С.Л. Шишурин и другие проводили исследования и разработки технологий восстановления, повышения износостойкости, а также надёжности и долговечности плунжерных пар топливных насосов высокого давления по научным школам Ф.Х. Бурумкулова, С.Н. Шарифудинова, М.М. Тошпулатова, К.Х. Махкамова и других. В то же время стоит отметить, что в данных исследованиях недостаточно изучены методы определения эксплуатационных параметров ТНВД с восстановленными плунжерными парами.

Связь диссертационного исследования с планом научно исследовательских работ высшего учебного заведения. Диссертационное исследование выполнено в рамках плана научно-исследовательских работ Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова.

Цель работы:

Целью является повышение производительности топливных насосов высокого давления с восстановленными плунжерными парами транспортных средств с дизельными двигателями.

Задачи исследования:

усовершенствована математическая модель определения заклинивания плунжерных пар топливного насоса высокого давления и процесса их изнашивания;

